

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLAR O'RNI

Yusupova Gulzor Yunusjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalari, mutafakkirlarning qarashlari, g'oyalari, yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish, tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar o'rnini haqida qarashlar mujassam.*

Аннотация: *В данной статье собраны взгляды на вопросы воспитания и нравственности, взгляды и идеи мыслителей, методы воспитания и сознания молодого поколения, их правильное использование и жизни, роль национальных ценностей в процессе воспитания.*

Annotatsion: *This article contains views on issues of education, morality, the views and ideas of thinkers, methods of upbringing instilled in the minds of the younger generation, their correct use in life, and the role of national values in the upbringing process.*

Kalit so'zlar: *Insonparvarlik, o'zlikni anglash, milliy qadriyat, milliy tafakkur, tarbiya, ong mahsuli, ma'naviy rivojlanish.*

Ключевые слова: *Человечность, самознание, национальная ценность, национальное мышление образование, продукт сознания, духовное развитие.*

Key words: *Humanism, self-awareness, national values, national thinking, education, product of consciousness, spiritual development.*

KIRISH

Ta'lim- bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish jarayonini emas, balki u oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi

Tarbiya- insonda ish-hunar, odob-axloqni shakllantirish, rivojlantirish, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislarga ega bo'lishini, ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi.

Qadriyat- voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy kenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar an'ana, urf-odat va boshqalar.

Milliy qadriyat- millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyat.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda ta'lim va tarbiya rivojlanishi milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Vatanimiz madaniyatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mavqeni egallaydi. Umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarning shakllanishi milliy madaniyatning rivojlanishi xususiyatlari bilan bog'liq. Bu borada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, „Biz o'z taraqqiyotimizni o'zga mamlakatlar

taraqqiyotidan ayri tasavvur eta olmaymiz va hamma narsa biz o‘zimizga bog‘liq bo‘lib qolavermaydi”. Bu o‘rinda aynan umuminsoniy qadriyatlarga urg‘u berilgan. Negaki, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va bir-birini to‘ldirib, boyitib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar insonni e‘zozlash, hayotni sevishtirish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma‘rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do‘stlik, hamkorlik singari fazilatlarini ifoda etadi. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik yoshlarimizni to‘g‘ri yashab, o‘z o‘rnini topishga, yon atrofga oqilona munosabatda bo‘lishga, tug‘ilib o‘sgan diyorini muqaddas deb bilishga hamda do‘stlikning qadriga yetishga o‘rgatadi. Milliy qadriyatlar esa shu millat, shu yurt xalqlari tomonidan tarixdan e‘zozlab kelinayotgan, inson ma‘naviyatini boyitishga xizmat qiladigan qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarda mehnatsevarlik, tarixiy xotiraga sadoqat, e‘tiqodiga hurmat, muomalada mulozamat, hayo va andisha muhim o‘rin tutadi.

O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur. Jamiyat taraqqiyotning asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma‘rifatdir. Aql zakovatli, yuksak ma‘naviyli kishilarni tarbiyalar olsakkina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jamiyat rivojlanishininh ma‘naviy- axloqiy

negizlari belgilandi, bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;-vatanparvarlik.

O‘zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2018-yildagi PQ-4038-sonli qarori ham milliy qadriyatlarni yoshlar ongi va qalbiga singdirish usullari to‘g‘risida fikr bildirilganda shuni alohida qayd qilmoq kerakki, avvalo ma‘muriy yo‘l va zo‘rlilik usuliga ehtiyotkor bo‘lish talab qilindi. Ushbu uslubiy qo‘llanmada sharqona an‘analar, urf-odat, marosimlar, shuningdek, ularning kelib chiqish tarixi va tarbiyaviy ishlarida ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Natijada talim tarbiya dasturlariga milliy qadriyatlar omillarini kiritish ishlari bosqichma-bosqich sharoitga mos holda puxta amalga oshirildi. Endilikda esa, milliy qadriyatlarning zamonaviy ta‘lim mazmuniga singdirilishi va integratsion jarayonning natijalari ilmiy o‘rganish, ilmiy doiralarning asosiy mavzularidan biriga aylanmoqda. Milliy qadriyatlarning tarixiy-pedagogik jihatlari va uning turli qirralarini o‘rganish ko‘p tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot va ilmiy nashrlari doirasida amalga oshirilgan.

Hozirgi Respublikada 80 dan ortiq milliy madaniyat markazlari ishlab turibdi. Ular O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy- madaniy ma‘naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobit rol o‘ynamoqda. Xalqning birligi, jipsligi va osoyishtaligi haqida gapirar ekanmiz, bu bizning bebaho boyligimiz, deydi yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyev.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy qadriyat tushunchalarini singdirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagilarga katta ahamiyat berishlari zarur hisoblanadi:

- 1) milliy qadriyatlar to‘g‘risida o‘quvchilarga tushunchalar berishda o‘qituvchining yetarlicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi;
- 2) o‘qituvchining o‘zi milliy qadriyatlar haqida tushunchalarga ega bo‘lishi;
- 3) har bir mavzuni milliy qadriyatlarga bog‘lay olishi;
- 4) o‘quvchilarga milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni qo‘llay olishi;

5) ta’lim- tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi.

Milliy qadriyat nima ekanligini bilmaydigan, umuman qadriyat deganda nima nazarda tutilishini bilmaydigan yoki qadriyatlar ichidan millatimizga xos qadriyatlarni ajrata olmaydigan ayrim boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining oramizda hali ham borligi va ular kelajagimiz bo‘lmish yoshlarga ta’lim-tarbiya berib kelayotgani, albatta, achinarli holdir.

Davlatimiz rahbari umumta’lim maktablari boshlang‘ich simflarida ishlayotgan o‘qituvchi murabbiylar haqida gapirar ekan, oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan, pedagogika kollejlari tamomlagan o‘rta-maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan tajribasiz o‘qituvchilarning kelajagimiz bo‘lmish yoshlarga ta’lim-tarbiya berib kelayotganidan tashvishda ekanini bildirib jumladan, shunday deydi: „Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo‘yilishini oddiy mantiqning o‘zi talab etadi”.

Demak, o‘qituvchining o‘zi qadriyatlar haqida ma’lum bir tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Qadriyatlar haqida ma’lum bir tushunchalarga ega bo‘lgan o‘qituvchigina qadriyatlar haqida o‘quvchilarga yetarlicha ma’lumotlar, bilim va ko‘nikmalar, tushunchalar bera oladi. Bu borada rus olimlari- A.A.Koychuev, YE, A, Rezvan; o‘zbek olimlaridan- A.A.Bolibekov, D.J.Kenjayevar tomonidan olib borilgan, milliy qadriyatlarning pedagogik jihatlari bilan diniy axloqiy qadriyatlarning mushtarakligi masalasiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarini qady etish lozim. Ilmiy qadriyatlarning ideallar shaklida ifodalanishi orzu-umidlar ro‘yobga chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib, u kishilar va jamiyat intiluvchi oliy maqsaddan iborat bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari fan bo‘yicha o‘tkazilayotgan har bir mavzuni qadriyatlarga, ayniqsa, milliy qadriyatlarga bog‘lay olishi dars jarayonida bir marotaba bo‘lsa ham qadriyat, milliy qadriyat, urf-odatlarimizni sevish, ularni asrab-avaylash, tinchlikni qadrlash, tinch-totuv, ahil-inoq yashash, bir-birimizga mehr-oqibatli bo‘lish kabi mavzular bo‘yicha olg‘a surilgan ilg‘or fikrlarni o‘quvchilar ongiga yetkazish, ularga ta’lim-tarbiya berishda, komil inson qilib tarbiyalash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan fikrlarning xulosa shunday ifodalanadi: Milliy an‘analarimizda uzoq asrlik tajribalar, vatanga muhabbat, do‘stlik, sadoqat ma’nolari mujassam!

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘rta Osiyoda hamisha milliy qadriyatlarning pedagogik jihatlari ham ularning tarixiy jihatlari kabi, avlodlasn avlodga meros qoldirilishi natijasida, zamon bilan hamnafas takomillashtirilgan va rivojlantirilgan. Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy jihatlari va ularning mazmunida do‘stlik, birodarlik, mardlik, vatanga va xalqqa bo‘lgan samimiy sadoqat motivlari ulug‘lanadi, ota-ona bilan farzandning o‘zaro mehr-muhabbati, qadr-qimmatini insonning eng yaxshi oliyjanob fazilatlari tarannum qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev SH. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016. 56b
2. Mirziyoyev. SH. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash va xalq farovonligi garovi. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016
3. Ismoilov. Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - Toshkent: Istiqlol, 2003.
4. Ibrohimov. H; Sultonov. V. tan tuyg‘usi. - Toshkent: sharq, 1996
5. Inomova. I. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. - Toshkent, 1999
6. Quronov. M. Milliy fazilarlarimiz- Vatanni qanday sevish kerak - Toshkent, 2002